

GOSPITAL PEDAGOGIKADA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TA'LIM TIZIMIGA JALB ETISHDA OTA-ONALAR, OILA VA JAMOATCHILIK BILAN ISHLASH.

Hamidova Sarvinoz

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Logopediya yo'nalishi 510-23-guruh Talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital pedagogikaning imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lismiziga jalb etishda tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Gospital pedagogika – uzoq muddatli yoki doimiy tibbiy muolaja talab etuvchi bolalarning ta'lism olish huquqini ta'minlashga qaratilgan maxsus ta'lism yo'nalishi bo'lib, unda ota-onalar, oila hamda jamoatchilikning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning o'qitish jarayonida oilaviy va jamoaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligi, shuningdek, hamkorlik tamoyillari va usullari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari gospital pedagogikaning inklyuziv ta'lism tizimidagi roli va istiqbollari yuzasidan xulosalar berishga imkon yaratadi.

Abstract: This article describes the role and importance of hospital pedagogy in the involvement of children with disabilities in the educational system. Hospital pedagogy is a special educational field aimed at ensuring the right to education of children who require long-term or permanent medical treatment, in which the participation of parents, family and the public is important. The article analyzes the effectiveness of family and team support during the education of children with disabilities, as well as the principles and methods of cooperation. The results of the research make it possible to draw conclusions about the role and perspectives of hospital pedagogy in the inclusive education system.

Аннотация: В данной статье описывается роль и значение госпитальной педагогики в вовлечении детей с ограниченными возможностями здоровья в систему образования. Госпитальная педагогика – специальная образовательная область, направленная на обеспечение права на образование детей, нуждающихся в длительном или постоянном медицинском лечении, в которой важно участие родителей, семьи и общественности. В статье анализируется эффективность семейно-командной поддержки в процессе обучения детей с ограниченными возможностями, а также принципы и методы сотрудничества. Результаты исследования позволяют сделать выводы о роли и перспективах госпитальной педагогики в системе инклюзивного образования.

Kalit so'zlar: gospital pedagogika, imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'lism, ota-onalar bilan hamkorlik, jamoatchilik ishtiroki, maxsus ta'lism, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Key words: hospital pedagogy, children with disabilities, inclusive education, cooperation with parents, public participation, special education, pedagogical support.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, дети с ограниченными возможностями, инклюзивное образование, сотрудничество с родителями, участие общественности, специальное образование, педагогическая поддержка.

KIRISH

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi va imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim olish huquqini ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Gospital pedagogika ana shu jarayonning ajralmas qismi hisoblanib, uzoq muddat yoki doimiy tibbiy muolaja talab etuvchi bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan maxsus ta'lim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Gospital pedagogikada nafaqat o'quv jarayoni, balki bolaning ijtimoiy moslashuvini, ruhiy barqarorligini ham e'tiborga olish kerak. Bu jarayonda ota-onalar, oila a'zolari va jamoatchilikning faol ishtiroki muhim ahamiyat egadir. Chunki bolaning o'qish motivatsiyasi, o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi ko'p jihatdan yaqinlarining qo'llab-quvvatlashiga, ularning motivatsiyaga bog'liq. Ushbu maqolada gospital pedagogikaning mohiyati, imkoniyati cheklangan bolalar ta'limida ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilishning usullari, qollanishlari, muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alovida ta'lim ehtiyojlari ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va axborot-kommunikasion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish" ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni, harakat-tayanchi shikastlangan bolalarni, kör va zaif köruvchchi bolalarni va boshqa ogir kasalliklarga chalingan bolalarni har tomonlama sifatli ta'lim bilan ta'minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, xoh u maxsus muktab, muktabgacha muassasalar bo'lsin, xoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin, xoh uyda ta'lim olish bo'lsin, o'qitishning barcha shakllari ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi, shaxslararo munosabatlar ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o'rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularga mos keladigan ta'lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim, gospital ta'lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan, umumta'lim muktablarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari shtatlarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish hisobidan maxsus pedagog shtat birliklari ajratilishi, alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning salohiyatini rivojlantirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan, umumta'lim muktablari tomonidan mazkur o'quvchilar uchun ular va ularning ota-onalari, jamiyat a'zolari ishtirokida individual o'quv dasturlari ishlab chiqilishi ham mumkin.

Afsuski, hozirgi kunda alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Shuning uchun, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga jalb etishda ularning ota-onalari, jamiyat a'zolariga tögri tushuntirish ishlarini olib borilib, ularga ta'lim, o'quv dasturlari haqida ma'lumotlar berilishi kerak.

1. Gospital pedagogikaning mohiyati va ahamiyati.

Gospital pedagogika uzoq muddat kasal bo‘lgan yoki doimiy tibbiy muolajaga muhtoj bolalar uchun maxsus tashkil etiladigan ta’lim tizimi hisoblanib, ularning bilim olish jarayonidan uzilib qolmasligini ta’minlaydi. Bu pedagogik yo‘nalishning asosiy maqsadi:

- Imkoniyati cheklangan bolalarga sifatlari ta’lim berish;
- Ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish;
- Ruhiy-emotsional barqarorlikni ta’minlash;
- Mustaqil fikrlash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish.

Gospital ta’lim tizimi kasalxonalarda, sanatoriyalarda, reabilitatsiya markazlarida yoki uy sharoitida olib borilishi mumkin. Bunday sharoitda pedagoglar bolaning salomatligini hisobga olgan holda moslashtirilgan o‘quv dasturlarini, darslarni tuzadilar va individual yondashuv asosida ta’lim beradilar.

2. Imkoniyati cheklangan bolalarini ta’limga jalb etishda ota-onalar va oilaning o‘rni.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limida ota-onalar asosiy tayanch kuch hisoblanadi. Chunki bola ko‘p vaqtini oilasi bilan, ya’ni ota-onasi, yaqinlari davrasida o’tkazadi va ta’limga bo‘lgan munosabati ham ota-onalarning yondashuviga bog‘liq bo‘ladi. Ota-onalar va pedagoglar o‘zaro yaqin hamkorlikda ishlashi quyidagi natijalarga olib keladi:

- Bolaning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlash;
- Unga psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish;
- Ta’lim muhitini qulaylashtirish va moslashtirish;
- O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish.

Ota-onalar bilan samarali ishslash uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Ota-onalar uchun trening va seminarlarni tashkil etish – imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim jarayoni va ehtiyojlari haqida tushuncha berish.
2. Oilaviy maslahat markazlarini tashkil qilish va chaqirish – ota-onalar va mutaxassislarning doimiy hamkorligini yo‘lga qo‘yish.
3. Uy ta’limi bo‘yicha qo‘llanmalar tuzish va berish – ota-onalarga bolaning mustaqil o‘qishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar berish.

Ota-onalarning ijobjiy hissasi natijasida bolalar o‘zlarini ishonchli his qiladilar va ta’lim jarayoniga yaxshiroq moslashadilar.

3. Jamoatchilik bilan ishslash va uning ahamiyati.

Gospital pedagogikada jamoatchilikning ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar haqida to‘g‘ri tushunchani shakllantirish, ularning ijtimoiy hayotga jalb qilinishini ta’minlash zarur. Jamoatchilik quyidagi yo‘nalishlarda faol ishtirok etishi mumkin:

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

• Homiylik va ko'mak dasturlari – maxsus ta'lim muassasalari va reabilitatsiya markazlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

• Ko'ngillilar harakati – talabalar, mutaxassislar va jamiyat vakillarini imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashga jalb qilish.

• Ijtimoiy loyihalar va tadbirlarni tashkil etish – sport musobaqalari, ijodiy festivallar va boshqa ijtimoiy tadbirlar orqali bolalarning jamiyat bilan integratsiyasini kuchaytirish.

Jamoatchilik tomonidan ko'rsatilgan bunday yordam bolalarning ijtimoiy moslashuviga, munosabatiga, bilim olishiga va hayotga bo'lgan ishonchini oshirishga katta hissa qo'shamdi.

4. Gospital pedagogikada duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo'llari.

Gospital pedagogikaning rivojlanishida turli muammolar uchraydi. Ularning eng asosiyлари quyidagilardir:

1. Pedagoglarning yetishmovchiligi – imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlay oladigan maxsus pedagoglarning kamligi.

Hal etish yo'lli: maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish.

2. Oilaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmovchiligi – ota-onalar va jamiyatning yetarlicha xabardor emasligi.

Hal etish yo'lli: jamoatchilik va oilalar bilan doimiy seminar va targ'ibot ishlarini olib borish.

3. Moddiy resurslarning cheklanganligi – texnik jihozlar va moslashtirilgan o'quv dasturlarining kamligi.

Hal etish yo'lli: davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gospital pedagogika imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda ota-onalar, oila va jamoatchilikning ishtiroti juda katta ahmiyat kasb etadi. Oilaning qo'llab-quvvatlashi, pedagoglarning maxsus yondashuvi va jamoatchilikning ko'magi natijasida bolalar o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishni boshlaydilar. Shu sababli, gospital pedagogikani yanada rivojlantirish, oilalar bilan hamkorlikni mustahkamlash va jamoatchilikning e'tiborini oshirish zarurdir. Gospital pedagogika tizimini yanada rivojlantirish, oilaviy va jamoaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli va samarali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va kelajakda mustaqil hayot kechirishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abduqodirov A. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan, 2021.

2. Abdullayeva G. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishning dolzarb masalalari // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022, №4.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlari. – Toshkent: 2022.

4. Salomova D. Gospital pedagogika va uning asosiy yo‘nalishlari // Ta’lim va taraqqiyot jurnali, 2023, №2.
5. UNESCO. Inclusive Education: Strategies for Developing Countries. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.
6. Vygotsky L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1983.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi "Maxsus ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida"gi qarori.
8. www.unesco.org – YuNESKOning rasmiy sayti, inklyuziv ta’lim bo‘yicha materiallar.